

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN VILOYAT PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TA'LIMDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH
KAFEDRASI

**Oilada ota-ona o'rtasidagi munosabatni bola shaxsining
shakllanishiga ta'siri.**

(uslubiy tavsiya)



Namangan – 2014 yil

Ushbu uslubiy tavsiya davlat talablari asosida tuzilgan bo'lib, undan umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaliyotchi psixologlari malaka oshirish kursi tinglovchilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va barcha toifa fan o'qituvchilari foydalanishi mumkin.

Tuzuvchi:

**N.Do'marova–NVPKQTMOI ta'limda
pedagogik-psixologik va innovatsion
texnologiyalarni joriy etish kafedrasi
o'qituvchisi.**

Taqrizchilar:

**G.Mirzatova–NVPKQTMOI ta'limda
pedagogik-psixologik va innovatsion
texnologiyalarni joriy etish kafedrasi
o'qituvchisi.**

**Q.Shodmonov NVPKQTMOI ta'limda
pedagogik-psixologik va innovatsion
texnologiyalarni joriy etish kafedrasi
o'qituvchisi.**

Ushbu uslubiy tavsiya NVPKQTMOI ta'limda pedagogik-psixologik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kafedrasining 2014 yil ____dagi____-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilib, institut o'quv-uslubiy kengashining 2014 yil____dagi____-sonli bayonnomasi bilan foydalanish uchun tavsiya etildi.

Sog'lom bola – avvalo sog'lom va ahil oilaning mevasidir.

Kirish

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan **2014-yil mamlakatimizda “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilindi.** Mazkur taklif o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu ishni amalga oshirish uchun bevosita yurtboshimiz rahnamoligida kelajagimiz egalariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning uzviy davomi borligi, yurtimiz yoshlarining hech kimdan kam bo'lmaydigan, ma'nan va jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishlari uchun yaratib berilayotgan barcha imkoniyatlar yanada ko'payishi, bu boradagi sa'y-harakatlar izchil davom etishini isbotladi.

Sog'lom bola eng avvalo oilda tug'iladi, voyaga etadi va kamol topadi. Yosh avlodning har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa ota-ona elkasidadir. Darhaqiqat, inson shaxsining shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila bolaning yaxshi hayot kechirishi va rivojlanishi uchun mumkin bo'lgan eng yahshi muhitdir. Oila bolani ijtimoiylashtirishning eng mos omili hisoblanadi. Bundan tashqari oila bolada himoyalanganlik hissini, o'zini baholashni, "oilaviy bola" ichki qarashlarini, insonlarga, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Oiladagi muloqot madaniyati aniqroq qilib aytadigan bo'lsak shaxslararo munosabatlar shu oila muhitining psixologik iqlimini belgilab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi, bu esa inson shaxsining shakllanishiga bevosita ta'sirini o'tkazib turadi.

O'zbek oilsa boshqa xalqlar oilasidan ancha farq qiladi. Ko'pincha o'zbeklar bir oilada bir nechta avlod a'zolari birga hamjihatlik bilan istiqomat qilishadi. Anashundan kelib chiqqan holda unung tuzulishi murakkablashib boradi; buva va buvi, (katta avlod vakillari), ota va ona (ikkinchi avlod vakillari), katta va kichik farzandlar (uchunchi bo'g'in a'zolari), nevara va evaralar (to'rtinchi avlodga mansublar) kabilar.

Yuqorida etirof etgan munosabatlarimiz oilada o'sib-ulg'ayayotgan farzandlarga ularning kamolotiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxslararo munosabatlarning negizini asosan muloqot tashkil etadi. Muloqot eng birinchi galda o'z-o'zini bilish va boshqa insonlarning tushuna olish, ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish shu bilan birga ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildirish, har bir shaxsning individual psixologik xususiyatlariga mos keladigan muloqot shakli, usuli va vositalarini tanlay bilishi muloqot jarayonidagi eng asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Muloqot eng avvalo insonning-inson tomonidan idrok qilinishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda shaxs haqida ma'lumot, idrok etilayotgan odamning

hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishni yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar

Insoniyatning muomala quroli til bo'lib, odamlar bir-birlari bilan bo'ladigan barcha muomala va muloqotlarning so'zlashish yordamida amalga oshiradilar. Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushinishning yetshmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq, shaxslararo munosabatlarning buzilishining asosiy sabablaridan biridir. Bizlar boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, ozimizning fikr-o'ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko'rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushinishga intilishga o'rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik holatlarda hatto bir-biriga zid manfaatlarga ega bo'lmagan odamlar xususan er-xotin, ota-ona va farzandlar ham hayotda bir-biriga noxushliklarni yetkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish niyatida, yoki o'zlari yovuz odam bo'lganliklari uchun emas, balki, shunchaki bir-birini tushunmaganliklari uchun sodir etadilar. Shunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy psixologiyada muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni quydagicha farqlangan.

Psixologik to'siq – bu suhbatdoshga ma'qul kelmay qolish, psixologik jihatdan tushinilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan idrok etilishi va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarni va niyatlarni mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi, o'ziga xos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli to'siqlar – bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushinishlari, unga turlich yondashishlari bilan bog'liq.

Mazmuniy to'siq – odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari suryapti, nimani nazarda tutyapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar – shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari muloqot munosabatlariga to'sqinlik qiladigan holatlardan biri suhbatdoshlarning psixologik madaniyatlilik nuqsonlardan biri, ya'ni ularning na eshitishni va na tinglashni bilmasligi, “teskari aloqaning” yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar orasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning etishmasligi

tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli; har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta "aqilli" dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatning egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarni ishlab chiqish, o'z gapi bilan suhbatdoshning qiziqтира olish qobiliyatini rivijlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiyqoidasi:boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari,xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishligini yodda tutish lozim.

Oilda shaxslararo munosabatlar.

Oila boshlig'i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat e'tibori ahloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarida ijobiy karakter xislatlarini zamon ruhiga mos shaxs fazilatlarini shakillantirishga qaratiladi. Zero oiladagi shaxslararo munosabatlar demokratik, avtoritar va liberal ko'rinishlarda amalga oshirilgan ekan.

Birinchi toifadagi munosabatlar **demokratik** ko'rinishdagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oila munosabatlarining ushbi ko'rinishida turli yoshda o'g'il-qizlarga maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ta'sir o'tkazish yaqqol sezilib turadi. Unday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sehri yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqea va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, yoki rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, hushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishda mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emotsional zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'lga olish kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Oila munosabatlarininig yana bir turi **avtoritar** deb atalib, bunda ota-onaning obro'risi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turish, xatti-harakatining ko'pincha cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi-jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish metodidan foydalanilganda ham, u bolaga ma'naviy ozuqa bermaydi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, begonalashish kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar ularni qondirmaydi;natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlik va havotirlik kabi ijtimoiy norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashish holati yuzaga keladi. Shu sababli oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya(yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimimiylik, hayrihohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda sust ifodalanadi. Ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'sunushga

asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqqoq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Oiladagi turmush munosabatlari ichida **liberal** toifa ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida murosasiz, ko'ngilchan bo'lishlik tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni o'zida aks ettirganday bo'lib turadi. Agarda murosasizlik " murisayu-madora " qabilida kechirimlilikni bildirib kelsa, yuqoridagi fikrimizning tasdiqlagan bo'ladi. Afsuski, **liberal** lik murosasizlik oiladagi har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi. Ota-onalarning farzandlari bilan bunday munosabatda bo'lishlari salbiy oqibat sari etaklaydi; qat'iylik, mustaqillik, dadillik, va cho'rtkesarlik singari irodaviy sifatlar o'g'il-qizlar ruhiy dunyosidan uzoqlashadi. Murosasozlik ta'sirida yosh avlod xarakterida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchanlik kabi illatlar tarkib topishi mumkin. Bu illatlar yosh avlodning taqdiri uchun o'ta xavflidir.

Oiladagi o'zaro munosabatlarning aralash yoki qorishma toifasida bola shaxsining shakllantirishning muayyan pedagogik tizimi mavjud emas. Oila a'zolarining o'rtasida bo'ladigan munosabatlar aksariyat hollarda o'git-nasihat, ahloqiy suhbat, yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan bog'lanib qoladi. Bunday ota-onaning farzandlari bilan muloqoti erkdan va botinib fikr yuritishdan uzoq bo'lganligi sababli, yumor hissiga befarqlik, o'z-o'zini qo'lga ololmaslik, mas'uliyatsizlik, tanglik, zo'riqish holatinin his qilmaslik, etarki darajada shaxslararo aloqa o'rnata olmasligi singari xarakter xislatlarini tarkib toptiradi.

Shu jumladan ota-onaning bag'rida o'sgan, ularning mehrini his qilib ulg'aygan bolalar ham jamiyatda o'z o'rnilarini topishga qiynalishmas ekan.

Qalbning birlamchi istagi – mehr berish. Unutmang – o'zini yaxshi ko'rmagan odamni hech kimni yaxshi ko'rmaydi. Odam qalbidagi mehrning bir bo'lagini o'ziga atashi kerak. Chunki har birimiz mukammal shaxsmiz – ichimizdagi qalb ana shunday mehribonchilikka munosib. Hech e'tibor berganmisiz – chaqaloq bor xonadon boshqacha fayzli bo'ladi. Chunki bu uyda barcha yangi mehmonga shartsiz mehr ko'rsatayotgan bo'ladi – ularning bu mehridan uy muhiti to'yingan va tashqaridan kelgan odamni sarhush qiladigan bo'ladi. Ammo keyinchalik bola katta bo'ladi, uning yoqimli qiliqlari qatori xarxashasi ham chiqadi. Tarbiya va'ji bilan asta- sekin atrofdagilarning bolaga bo'lgan shartsiz mehri tobelik munosabatiga aylanadi va oiladagi avvalgi fayz biroz yo'qoladi. Katta odamlar esa bir-birlariga mudom tobelik orqali munosabatda bo'ladilar. Ular bolalikda olgan shartsiz mehrlarini birovga berishni unutib qo'yadilar. Bunda mehr qancha tobelikka alishtirilsa, fayz ham shuncha kam bo'ladi. **Ho'sh bugungi kunda biz farzandlarimizga beminnat mehr beraolyapmizmi aniqroq qilib aytadigan bo'lsak o'z munosabatlarimiz orqali o'rnak bo'laolyapmizmi?**

Muayyan darajada shart-sharoitlarning mavjudligi, ota-onaning o'zaro birbirlarini tushunib turmush kechirishlari, maqsad va vazifalardagi birlik, yuzaga keladigan ziddiyatlarni birgalikda bartaraf eta olishlari mustahkam oila muhitini shakllantiradi. Natijada esa, yosh avlodni mukammal shaxs bo'lib shakllanishida ijobiy ro'l o'ynaydi.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki oilaviy munosabatlarda er-xotinning kasb-kori, ma'lumoti, bilim saviyasi muhim rol o'ynaydi. Er-xotinlarning sanab o'tilgan mezonlar bo'yicha qanchalik o'zaro yaqin bo'lsa, shunchalik teng huquqli, sermuloqot, ichki birlik, engil his qilish, sezish, fahmlash yuzaga keladi. Bu narsalar oila barqarorligi,

Ota-onalar bolalarning yosh psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Masalan: 4-6 yoshli bolalarning organizmida qanday o'zgarish va tashqi muhit ta'sirida qanday o'zgarish ro'y beradi..?! yoki 11-12 yoshli bolalarning hatgi-harakatida keskin o'zgarishni kuzatamiz, ba'zi ota-onalar «Falonchi bilan urishib keldi», «Qaysar bo'lib qoldi», «Bir gap gapirsangiz, o'nta qaytaradi», «Aqlli, esli-hushli bola edi, uy ishlarida yordam berardi, to'rtinchi sinf bo'ldiyu xuddi uni almashtirib qo'yganday ... » va hokazo gaplar qulog'imizga chalinadi. Nima uchun?!.. Bu yoshdagi barcha bolalarda shunday o'zgarishlar kuzatiladimi?

Bu yoshdagi aksariyat bolalar ulg'ayishganini, mustaqil bo'lishganini, qo'llaridan ko'p narsa kelishini ko'rsatishga harakat qilishadi. Bunday holatni bolalardagi yosh psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda tarbiyalanayotgan bolalarda ko'rish mumkin.

Bu yoshda bolalar organizmining endokrin sistemalari yaxshi ishlashi natijasida modda almashinuvi, ichki organlar va tananing rivojlanishi jadallashadi. Bo'y tez o'sadi, shu bilan birga barcha organizmlar ham o'sadi, lekin yurak va yurak qon tomirlari sistemalari o'sishda ortda qoladi, bu esa qon bosimini pasayishiga, kam quvvatlikka ba'zan esa kamqonlikka olib keladi. Bunday holat ko'proq kunning ikkinchi yarmida seziladi.

Bu 11-12 yoshli bolalarda kuzatishimiz mumkin bo'lgan yosh psixologik xususiyatlarning bir qismi xolos. Shunday ekan, har-bir bolaning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda e'tibor bilan tarbiyalamog'imiz lozimdir. Buning uchun oila qanday bo'lmog'i lozim?

Ma'lumki oila-ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruxning ko'rinishi. Chunonchi, uning a'zolarini qarindosh uryg'chilik, nikoh turmush sharoiti birligi, odob axloq, umumiyligi, ma'naviy extiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi.

Shaxsning rivojlanib tarkib topishda asosan uchta omil xal qiluvchi ahamiyatga molikdir:

- 1. Biologik omil**
- 2. Ijtimoiy muhit**
- 3. Ta'lim va tarbiya**

Insonning xaqiqiy komil inson darajasida o'sib yetishishda mazkur uchta omilning roli birdek ahamiyat kasb etadi.

Muayyan sababga ko'ra bu omillardan birontasi marom darajasida bo'lmay shaxs faoliyatida turli miqyosda amal qilinmasligi salbiy ko'rinishlarni keltirib chiqaradi. Shaxs ma'naviy qiyofasida chekinishi yuz beradi - uning tarbiyasi buzila

boshlaydi.

Qadimiy xindlar ota o'z farzandiga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi xaqida quyidagilarni bejiz aytishmagan.

Olimdan aqli zaif va aksincha, aqli zaifdan olim tug'ulish mumkinmi? degan savolga javob berishdan oldin «Aqlii zaif» tushunchasi xaqida ozgina tasavvur xosil qilib olishimiz kerak. Aqli zaif deb nasliy, xomilalik, tug'ilishi yoki erta yoshlik davrida bosh miya patologik ta'siriga uchrashi natijasida bilish faoliyatining turg'un pasayishi tushuniladi.

Ota-onalari olim bo'lib turib, farzandlari aqli zaif bo'lgan xolatlar ham kuzatilgan. Buning sababi turlicha bo'lishi mumkin.

- Ota-onalarning oldingi avlodlarida mavjud bo'lgan genlardagi og'ishlar bilan belgilanishi.

- Xomila yuzaga kelishi davrida xromosomalardagi og'ishlar natijasida aqli zaif bolalar tug'iladi.

- Nasl sog'lom bo'la turib, xomila shakllanayotgan davrda rentgen nurlari, alkogol, giyohvand moddalar, kimyoviy ta'sirlar, jaroxatlar, onaning turli yuqumli, virusli kasalliklarga chalinishi va boshqalar natijasida aqli bola tug'ilib o'sishi mumkin.

Savolning ikkinchi qismiga javob beradigan bo'lsak, aqli zaifdan olim tug'ilishi mumkin, ham mumkin emas. Bu ota-onalarning ikkalasi yoki bittasi aqli zaifligiga va aqli zaiflikning tabiatiga bog'liq.

Agar ota-onalardan biri aqliy jixatdan normal bo'lib, ikkinchisi aqli zaif bo'lsa, bunday oilada aqli zaif bola tug'ilishi xafi kamayadi.

Ikkinchisidan eng muhimi shundaki agar ota-onadagi aqli zaiflik ularning har ikkalasida nasliy omillar asosida yuzaga kelgan bo'lsa, bunday oilada aqliy sog'lom bola tug'ulib o'sishi qiyin.

Bolaning sog'lom bo'lishi uning shakllanib voyaga yetishi uchun oilaviy munosabatlar ya'ni tug'ilishidan boshlab uning kelajakdagi xayotigacha aloqasi bor.

Bolaning sog'lom bo'lishini belgilovchi omillarga oiladagi tarbiya va muhit ota-ona, ayniqsa onaning yoshi muhim ahamiyatga ega. Fiziologik nuqtai nazardan erkak kishi 60, 80, 90 yoshda ham farzand ko'rish mumkin.

Erkakning yoshi ayolning sog'lom bola ko'rishiga kuchli ta'sir qilmaydi. Oilada farzand ko'rish uchun ayollarning optimal yosh davri 20-35 yoshni tashkil qiladi. Erta-18 yoshgacha va 40 yoshdan keyin ayollarning farzand ko'rish maqsadga muvofiq emas. Er-xotin munosabatlaridagi surunkali nizolar, urush-janjallar, onaning tez-tez stress, xatto depressiya xolatida bo'lishi, shuningdek, o'zini tinchlantirish maqsadida qabul qilgan dorilar, yoki alkogol ichimliklar bolaning sog'lom rivojlanishiga aks ta'sir etadi.

G'.Shoumarov, O.Musrmonova, V.Karimova va boshqalar tadqiqotlari turmush ortog'ni tanlash va oiladagi munosabatlar hususiyatlari, ota-onalarning bir-birlariga munosabatlari oilada insonning hayot tarzi, intilishlari doirasi va darajasi, hayotiy

yo'nalishlarini belgilovchi omil bo'lib hizmat qiladi.

Psixologiya nuqtai nazaridan, bola ruhiy sog'lom rivojlanishi va tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishi uchun quyidagi to'rt ko'rsatkich qondirilishi shart.

- Ota-ona g'amho'rligi va etiboriga ehtiyoji.
- Emosional sohadagi ehtiyojlar.
- Ijtimoiy bilish ehtiyojlari.
- Bolani ijtimoiy hayotga jalb qilinishi bilan bog'liq ehtiyojlar

Psixolog olim V. I. Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, *baxtli bolalik - bu oiladagi quvonchni, xamjixatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir* degan xulosaga keladi. Muallif oilaning yo'nalishiga qarab uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi:

1. Ijtimoiy - ilg'or yo'nalishdagi oila.
2. Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila.
3. Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan oila.

Birinchi toifaga xos bulgan oilalar bizdagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bundan oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq printsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali (yuksak orzu timsoli) nazarda tutiladi.

Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxanada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan qiziqishlarni namoyish qiladilar, shuning bilan bu narsaga o'z farzandlarida ham xavas uyg'otadilar.

Oilada goxo bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda xamjixatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, qimmatbaho materiallar har-hil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi.

Ikkinchi toifaga mansub oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi.

Oiladagi turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyani boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi. U yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli xech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Er-xotinnig yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsillari (nuqtai nazarlari) ko'pincha ularning fe'l atvor hususiltlariga tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Burch xissigina muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolarining o'zaro birlashtirib turadi.

Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta'sir o'tkazish kuchi, kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifadagi oilalarda ko'pincha meshchanlik udumi va ideallari xokimlik qiladi.

Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo'ysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishga qaratilgan.

Voyaga yetgan oila-a'zolarining, ota-onaning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlagan maqsadga yetishi vositasi sifatida, har qanday mehnat esa ish xaqqi miqdori bilan o'lchanadi.

Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari faolligini poymol qilishga intilishi va hokazolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideal va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish, ijtimoiy turmush faoltilida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi.

Shu bois past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalarda xudbin, qo'rqq, jamiyat uchun nafi kam tegadigan o'g'il -qizlar yetishib chiqishi mumkin. Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat'iylk, qadr-qimmat xissi kabi insoniy xislar shakllana boshlaydi.

Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-uka va opa-singillik mehri, ota-onalarga muxabbat va shavqat tuyg'ular namoyon bo'lib boradi. Agarda oilalardagi er-xotin munosabatlari faollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruxiy dunyosida kekkayish, pismig'lik ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti - harakatlar qoidalarni sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, ma'suliyatsizlik, dimog'dorlik illatlari unib chiqadi.

Xozirgi kunda jamoatchilikning quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda.

- Oiladan o'g'il - qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanayotirlar va ular qanday ruxda, maromda tarbiya olmoqdalar?

- Oilaning tarbiya ishi rejali va tartibli olib boriladimi?

O'quvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindosh urug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar?

- Oila tarbiyasida ota-ona o'rtasida birlik, umumiylik mavjudmi?

- maktabda qo'llanilayotgan axloqiy tarbiya vositalari va shakllari qanday tadbiq etiladi?

Oilada rag'batlantirish va jazolash usullardan qay yo'sinda foydalanilmoqda?

Bolangizni jazolamoqchimisiz

Hamma ota-ona o'z farzandini yaxshi ko'radi. Ammo shunday vaqtlar bo'ladiki, ba'zan bolamizning qaysarliklariga chiday olmay qolamiz. Baqiramiz, qo'l ko'taramiz. Ayrim vaqtlarda bu harakatimiz o'z samarasini bersa, gohida bu natija bermaydi. Xo'sh bolaga jazo berish kerakmi yoki yo'q? Shu o'rinda mutaxassislarning fikrlarini keltiramiz.

Tarbiyaning bu turi haqidagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, jazo ham o'z o'rnida bola tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Bolasini kerak bo'lganda jazolab turadigan ota-onalar unga nisbatan befarq emasliklarini bildiradilar. Jazo qanchalik kam qo'llansa, shunchalik yaxshi ta'sir qiladi. Ko'p jazolanadigan bolalar yolg'onchi,

ayyor, qo'rqqoq bo'lib, ularda tajovuzkorlik hissi kuchayadi.
Qilmishga yarasha o'z vaqtida berilgan jazoning foydasi ijobiy bo'ladi.

Jazoning turlari:

- majburiybekorchilik-burchakdao'tirish;
- mukofotvaimtiyozlardanmanqilish;
- hulqinitanqidqilish.

Jismoniy yoki aqliy mehnatni jazo sifatida aslo qo'llab bo'lmaydi.

Jazolash qoidalari:

-jazolash asnosida bolaga: "O'ylab ko'r, nima uchun va nima sababdan?" degan savollarniberish.

-jazolash hech qachon bolaning sog'lig'iga ta'sir qilmasligi lozim.

-jazolash kerakmi-yo'qmi, degan gumon paydo bo'lganda, jazolamaslik.

-har "ehtimolga qarshi jazolash"larning bo'lishi mumkin emas.

-bir safar faqat birgina ish uchun jazolanadi.

-o'tib ketgan ish uchun jazolanmaydi.

-Har bir noto'g'ri ish uchun jazoni o'z vaqtida berishkerak.

-jazolash kechirish demakdir, endi bu ish bolaga kamchilik sifatida eslatilmaydi.

-Jazolashda xo'rlash mumkin emas.

- Shu bilan birga jazoni kuchlilarning kuchsizlar ustidan bo'lgan g'alabasi deb ham qarash mumkin emas.

- Bolaning xato qilishini tabiiy xolat deb qarash lozim. - SHu bilan birga uni doimo qo'rquvda saqlash ham mumkin emas.SHunday ota-onalar bo'ladiki, jajjigina bolakayining yo'l qo'ygan arzimagan xatosi uchun asabini boshqara olmay urishadi. Lekin bugan asabini jilovlay olmagan, ota-onasining xatosi uchun ertaga o'sha bola bir umr o'z fikrini boshqalarga erkin ayta olmaydigan, tortinchoq, o'zini aybdordek his qiladigan bo'lib qolishi mumkin.

Oilaning mavjudligi yoki yo'qligining bola shaxsi shakllanishiga ta'siri ko'rsatkichlari.

	Oilaning mavjudligi	Oilaning yo'qligi yoki dezadaptasiya
Emosional ko'rinishi	Ota-onalar muhabbati,yaqin,iliq,do'stona munosabatlar.	Ota-onalar muhabbatining yo'qligi, begonalashgan, sovuq,dushmanlarcha munosabatlar.
Tarbiya	E'tiborlilik,rag	E'tiborsizlik va

vositalari	'batlantish,me' yoridaqattiqqo 'llik,munosib jazolashturlari, nazorat,intizom.	rag'batlantirmaslik,beparvolik,zo'ravonlik,beshavqatlik,qo'polilik.
Muhitning ta'siri natijalari	Oilada	Oilasiz yoki moslashmagan oilada
1.Tajovuzkorlik	Yaqqol emas ba'zan	Yaqqol
2.Xavotirlanish	Vaziyatli,yoki bo'sh ifodali shaxsiy havotirlik	Shaxsiy va vaziyatli yaqqol havotirlanish
3.O'zini aybdor his qilish	Yaqqol ifodalanmaydi yoki ba'zan	Yaqqol ifodali
4. Negativizm	Yaqqol ifodalanmaydi yoki ba'zan	Yaqqol ifodali
5. Shubhalanish	Yaqqol ifodalanmaydi yoki ba'zan	Yaqqol ifodali

Oila haqida donishmandlarning fikrlari.

Qaynata – havo. Oila musaffoligini ta'minlash mas'uliyati unda. Qaynona – tuproq. Uning loyi asli tuproqdan olingani uchun sabrli. O'g'il – suv. Ota va onaga hayot bahsh etib turuvchi manba. Kelin qay bir manzillardan elib keluvchi shamol. Farzand esa, shu to'rt unurning bag'rida muallaq turgan nilufar gulidir.

Yomon xotin hayotni zaharlaydi, yahshisi esa jonga tegadi. Ular orasidiga farq ana shunda, xolos.

Ayollarda go'zal bo'lmoqlikning birgina, lekin jozibador bo'lmoqlikning esa yuz ming imkoniyati bor.

Erini sevadigan xotin er uchun har narsaga tayyor. Faqat ikki narsadan voz kecha olmatdi. Bu – erini tarbiyalash va uning xatti-harakatlarini tanqid qilishdir.

O'zbek xalq maqollari

- Qush uyasida ko'rganini qiladi.
- Qazisan qartasan asl zotingga tortasan.
- Odobli bola elga manzur.
- Jannat onalar oyog'i ostidadir.
-
-

Bolalar yashashni hayotdan o'rganadilar.

- Agar bola muntazam tanqid qilinsa,u nafratga o'rganadi.
- Agar bola adovat a(yovgarchilik,zidlik,xusumat)muhitida yashasa u tajovuzkorlikka o'rganadi.
- Agar bola muntazam mazax qilinsa,u indamas,odamovi bo'lib qoladi.
- Agar bola faqat tanbeh eshitib eshitib katta bo'lsa,uning o'ziga ishonchi yo'qoladi.
- Agar bola sabr-toqat muhitida katta bo'lsa,u boshqalarning fikrini hurmat qilishga, ular bilan murosada bo'lishga o'rganadi.
- Agar bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissi ortadi.
- Agar bola tez-tez maqtab turilsa, unda minnatdorlik hissi shakillanadi.
- Agar bola faqat rostgo'ylik muhitida yashasa, u adolatli bo'lishga o'rganadi.
- Bolalar ota-onasi, kattalarning kuchli bosimidan keyin o'zlaridagi bor hususiyatlarini bizdan yashirishni, niqoblashni o'rganib oladilar.

Farzandingizga imkon bering

- Bolangizning hech qachon biror- bir narsni noto'g'ri bajarding deb koyimang.
- Uning qiziqishi,ijodkorligini va fikrlar originalligini qo'llab-quvvatlang.
- Bolaning o'z sevimli mashg'uloti yoki o'yini turini tanlashiga va o'z fikrini bayon etishga imkon bering.
- Bolangiz sizgi emas siz unga moslashishingiz kerakligini unutmang.
- Tengdoshlari va kattalar bilan munosabatdagi muammolarni bartaraf etishda yordam bering.
- Bolangizning har doim ham g'olib bo'lishiga ortiqcha intilmang,aks holda boshqa bolalar,tengdoshlari uni yomon ko'rib qolishlari mumkin.
- Uni haddan tashqari maqtamang, iqtidorli ekanligini o'zining oldida gapirmang.

- Bolangizning yutuqlarini emas balki uni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishingizni diom farzandingiz his etsin.
- Bolangizni boshqa bolalar bilan taqqoslamang.
- Bolaning har bir savoliga imkon qadar rost va sabr bilan javob bering.
- U bilan g'ururlanishingizni ta'kidlashdan uyalmang.
- Har kuni farzandingiz bilan yolg'z qolish uchun vaqt ajratishga harakat qiling.
- Bolangizga nisbatan o'z hissiyotlaringizni baholashda rostgo'y bo'ling.
- Bolangizga har doim rost gapiring,agar bu siz uchun foydasiz bo'lsa ham.
- Bolangizning aybi uchun jazolamoqchi bo'lsangiz (masalan biror bir narsani sindirib qo'ysa yoki kiyimini iflos qilib qo'ysa) unga ayni vaqtdagi aybi uchun tabeh bering.
- Hech qachon kuch bilan bolaga ta'sir o'tkazmang, majbur qilish bolaning ma'naviy tarbiyasiga, shaxsini rivojlanishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Bolangiz hato qilishga haqli ekanini tan oling.
- Bolangizning yodida faqat baxtli onlar muhrlanib qolishiga xarakat qiling.
- Kattalar bolaga qanday munosabatda bo'lishsa, bola ham o'ziga xuddi shunday munosabatda bo'ladi.
- Hech bo'lmaganda ba'zi-ba'zida bolaning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring, ana shundagina bolaga qanday munosabatda bo'lishingizni anglab etasiz.
- Unutmang, bola bilan istagan paytda kelishish mumkin.

Siz o'z bolangizga qanday munosabatdasiz

Har bir inson o'z bolalarining kelajagi haqida doimo qayg'uradi. Bolalar bilan qanday munosabat o'rnatish,ularni qanday tarbiyalash haqida bosh qotiradi. Quyida sizning bolalaringiz bilan qanday munosabatga ega ekanligizgizga baho beruvchi test berilgan. Unga javob berish orqali o'zingiz va bolalaringiz o'rtasidagi munosabatga tegishli bo'lgan ma'lumotlar olasiz .

1. Ertalab bolangizning kiyinishiga yordam berasizmi?
2. Siz uni yaxshi kiyintirishga intilasizmi?
3. Yo'lni kesib o'tayotganda siz uning qo'llarini ushlab olasizmi?
4. "O'sib otangdek bo'lasan",deb ko'p aytasizmi?
5. Tengdoshlari orasida,ulardan yaxshi bo'lish kerakligini ishontirib aytasizmi?
6. Farzandingiz oldida o'qituvchilar,tarbiyachilar haqida yomon fikrlarni aytasizmi.
7. Bolalar o'rtasidagi janjal yoki kelishmovchiliklarga aralashasizmi?
8. U bilan bo'lgan muloqotda siz "bizning davrimizda bunday bo'lgan edi" kabi so'zlarni aytasizmi?
9. Siz undan kim bilan o'rtoq va nima bilan mashg'ulligini,har doim aytishini talab qilasizmi?

10. Boshqa ota-onalardan norozi bo'la turib siz bolangizga mehmonga bormasdan, ularni o'z uyiga taklif qilishni tavsiya qilasizmi?

Savollarga javoblar “ha”, “yo'q”, “gohida” tarzida bo'lsa, har bir “ha”ga 3ball, “yo'q”ga 1ball, “gohida”ga 2ball beriladi.

10 dan 15 ballgacha- Sizga ma'lumki, bolani man qilishlar orqali yoki har doim yonini olish, pand-nasihatlar bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Siz bolangizning katta bo'lganini to'g'ri tushunasiz, unga mustaqil bo'lishga yordam berasiz, sizga bo'lgan ishonchini yo'qotmasligini xohlaysiz.

16 dan 23 ballgacha- Siz qizingiz va o'g'lingizni hayotdagi o'z yo'lini mustaqil topishga yo'l qo'ymaysiz, ularni sizni fikringizga qarshilik qilishga ham yo'l qo'ymaysiz. Bu sizning fikringizcha og'r dahmaza. O'qituvchilar bilan sizning fikringiz har doim mos tushavermaydi, shuning uchun ular bilan o'zaro muloqot qilaolmaysiz. Sizning bolangiz ulg'ayayotganligiga, uni sizga bog'liqligi kamayayotganligiga ko'nika olmaysiz va bunga ishingingiz kelmaydi. Unga ozgina erkinlik bering, bu unga ham sizga ham kerak.

24 balldan 30 ballgacha- Siz bolangizning o'qituvchilari bilan ham, uning o'qtoqlari bilan ham yaxshi munosabatda o'rnatolmadingiz. Buning sababi bolangizga juda ham qattiq yopishib olganingizdir. Siz faqat uning uchun yashayapsiz. Hayotingizning ma'nosi faqat farzandingiz baxtini yoritishda deb bilasiz. Bu bolani tarbiyalashning to'g'ri yo'li emas, chunki bolani to'g'ri tarbiyalash uchun oilada to'g'ri munosabatlar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Siz o'z tarbiya metodingizdan tezda voz kechishingiz va bolaning erkin nafas olishiga imkon yaratishingiz kerak. Tez orada buning natijasini ko'rasiz, bolangiz ancha boshqacha bo'lib qoladi, sizning esa bo'sh vaqtingiz ko'payadi.

Rasm bola qalbining ko'zgusi

Biz kattalar ko'nglimizni o'rtayotgan g'am, tashvishlar, qo'rquv yoki dardimiz to'g'risida gapirib dilimizdagini bo'shatamiz. Kichkintoylar esa qo'lga qalam olib o'z his-tuyg'ularini “chizib” beradilar. Chunki bu ular uchun eng oson va qulay yo'ldir. Uch-to'rt yetti yoshli bolalarning rasm chizishi voyaga yetgan o'smirning shaxsiy kundalik daftar tutishdek o'zini namoyon qilish usilidir.

Keling, shunday ekan farzandimiz chizayotgan rasmlarga ruhshunos nazari bilan qarashni o'rganaylik. Mabodo quyida keltirilgan rasmlarning bundan avval farzandingiz albomida uchratgan bo'lsangiz, demak, boroz o'ylanishga

fursat kelibdi. Lekin xulosa chiqarishga. Agar qaysidir bir detal farzandingiz chizayotgan rasmda bot-bot takrorlanaversa, shundagina bezovta bo'lishga asos bo'ladi. Bunday vaziyatda albatta ruhshunos dargohiga boring. Balkim kichkintoyingiz rostdan ham yordamga muhtojdir.

Qanday tushunish mumkin?

Bunday rasmlarni faqatgina o'zidan ko'ngili to'q va o'ziga ishongan bolalar chizishi mumkin. (Ba'zida bunday bolalar haddan ziyod o'ziga ishonib ketadilar)

Qanday qilib yordam bersa bo'ladi?

Farzandingizning o'ziga berayotgan bahosi boshqalarning hurmat qilish hissi bilan uyg'unlashib namoyon bo'lishini kuztib boring. Lekin bu narsni bolaning nafsoniyatiga tegmay amalga oshiring. Chunki osmondan erga tushish har doim ham yoqimli bo'lavermaydi.

“ Meni faqat dadajonim yaxshi ko'radilar ”

Ota o'z o'g'lini sayrga olib chiqmoqda. Ota o'g'il konkida uchmoqdalar (rasmda tasvirlangan)

Buni qanday tushunmoq kerak?

Bola deyarli barcha vaqtini dadasi bilan o'tkazadi. Ular ikkalasi yaxshi kelishadilarku-ya, biroq ona bu erda ikkinchi darajaga o'tib qolmoqda.

Qanday yordam bersa bo'ladi?

Ko'pincha yakshanba kunlari ro'zg'or yumushlari bilan band bo'ladigan ayol kichkintoyi xalaqit bermasligi uchun uni dadasi bilan sayr qilib kelishga yuboradi. Keling yaxshisi hech qachon ado bo'lmadigan va keying surib qo'ysa ham bo'ladigan yumushlarni chetga surib qo'yingda uchovlah sayrga chiqing.

“Mening orzuyim amalga oshadi”

Velosiped va bolakayning rasmi chizilib, ustidan bo'yab tashlangan

Buni qanday tushunmoq kerak?

Dildandingiz o'z orzusi haqida aytishga istihola qolyapti yoki o'z orzusi ushalmaligiga amin.

Qanday yordam ko'rsatsa bo'ladi?

Uning orzulari to'g'risida suhbatlashib ko'ring. Nima uchun unga u yoki bu narsani olib bermasligingizni aniq tushuntirig,uning qaysi orzusini ro'yobga chiqarishingizga kuchingiz yetishini o'ylab ko'ring.

“Men bu dunyoda hechkimga kerak emasman”

(Ozg'in, nozik gavdaning ortiqcha detallarsiz tasviri)

O'lab ko'ringchi farzandingiz nima demoqchi?

Farzandingiz tushkunlikka tushib ozini yolg'iz sezmoqda. Unga qanday yordam beray demoqchimisiz!jigargo'shangiz uchun ko'proq vaqt ajrating. Balki ish bilan ko'milib ketibu bilan gaplashib olishga, birga sayr qilishga yoki shunchaki uni bag'ringizga bosib erkalashga vaqt ajrata olmayotgandirsiz. O'z yumushlaringizning bir chetga suringda hoziroq kichkintoyingiz bilan o'nab dam olsangiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

“ Oyim ishlaydi, dada mesa dam oladi “

Bola o'z sur'atida ayol idish tovoqlarni yuvayotganini, erkak kishi esa televizor tomosha qilyotganini aks ettirgan. Lekin bolikay ozini tasvirlamagan! Xo'sh bung anima deysiz!

Bolakay, dadasi har doim dam olishga, onasining esa oshxona ishlaridan bo'shamasligiga ko'nikib ketgan. Ota-onasining o'z farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqti yo'q.

Qanday yordam bersak bo'ladi?

Vahti-vaqti bilan turmush o'rtog'ingiz bilan o'rin almashib turing. Hayotda boshqacha ham bo'lishi mumkinligini farzandingiz oz ko'zi bilan ko'rsin. Shuni yodingizdan chiqarmangki,hech bir uy-ro'zg'or yumushi bolangiz tarbiyasidan ustun bo'lolmaydi.

“ Men juda ham uyatchan va nimjonman ”

Oppoq qog'ozning burchagiga kichik jussa rasmi chizilgan! Nima deb o'ylaysiz bolangiz nima demoqchi!!!

Farzandingiz o'ziga tanish davrada ham o'zini noqulay sezadi,boshqalar bilan muomala qilishga anchagina qiynaladi. Unga qanday yordam berish kerak deb o'lanyapsizmi, darhol tarbiyachisi yoki o'qituvchisi bilan bog'laning va farzandangiz kun davomida ozini qanday tutishi haqida ular suhbatlashing.bolangizni uyatchanligi ustidan zinhor kulmang va asbiylashmang, doimo uni qo'llab-quvvatlashga , maqtashga harkat qiling.

“ Men o’zimni idrok qila olmayman ”

Chizgan rasmlarida bolakay o’zini qog’zga sig’may qolgan vagon ichida tasvirlagan. Buni qanday tushunish mumkin?

Bolakay o’ziga ishongani bilan uni intizomi va his-tuyg’ularini jilovlay olish borasida muammolari bor. Bola yordamga muhtoj.

Qizingiz yoki o’g’lingiz biror-bir yumush yoki rasmlarni chizayotganda chalg’ib ketmasligini kuzatib boring, agar uni tartib-intizomga o’rgatishda qiyinchiliklarga duch kelsangiz, ruhshunosga murojaa eting.

Aziz ota-onalar, farzandingizning har bir hatti-harakatini kuzatib, to’g’ri hulosalar qilishga, ularni tushunishga va albatta zudlik bilan yordamga shoshilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.: O'zbekiston, NMIU, 2011 yil,.
2. Karimov.I.A. Barkamol avlod yili davlat dasturi.T.:O'zbekiston, 2010.
3. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.T.:Ma'naviyat,2008.
4. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.:O'zbekiston,1998.
5. Karimova V.M. Psixologiya.T.: 2002..
6. Shoumarov.G'.B, Haydarov.I.O Oila psixologiya T: 2007.
7. X.I.Ibragimov,U.A. Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev.
Pedagogik psixologiya. T 2009
8. O.Alimardonova, Q.Nazarov. Hayot va turmush odobi. T 1996.
9. Yu.Asadova, R.Musurmonova. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.T 2011.
10. Oila davrasida. (2014 yil, 9, 10 soni.)

INTERNET SAYTLARI:

1. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
2. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
3. <http://www.litres.ru>

